

UDC: 342.4+343.1(045)(575.1)

JINOYAT ISHINI TUGATISHDA SHAXS HUQUQLARINI TA'MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Maxmudov Sunnat Azim o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-5397-4736
e-mail: s.maxmudov@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada sud-huquq islohotlarini amalga oshirishda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilik normalari asosida jinoyat ishini tugatish instituti tushunchasi, uning o'ziga xos jihatlari va jinoyat ishini rehabilitatsiya qilinmaydigan asoslar bo'yicha tugatishda yuzaga keladigan ayrim muammolar tahlil etilgan. Maqolada olimlar jinoyat ishining rehabilitatsiya qilinmaydigan asoslari bo'yicha ilgari surgan qarashlari orqali ushbu institutning qo'llanish doirasi o'rganildi. Olimlarning qarashlari va ilgari surgan g'oyalaridan kelib chiqqan holda jinoyat ishini noreabilitatsiya asoslariga ko'ra tugatish ilmiy, nazariy, amaliy va qonunchilik normalari orqali tahlil etildi. Shuningdek, maqolada ayblilik masalasini hal qilmasdan turib jinoyat ishini tugatish asoslari tasnifining surishtiruv va dastlabki tergovni tamomlashdagi o'рни va ahamiyati, uning o'ziga xos jihatlari, jinoyat protsessual qonunchilik va sud-tergov amaliyotida yuzaga kelayotgan ayrim muammolar tahlil etildi. Maqolada olimlarning rehabilitatsiya qilinmaydigan holatlar bo'yicha jinoyat ishini tugatish asoslari haqidagi fikrlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning ta'riflaridagi tushunchalarni qonunchiligimizga asosan ko'rib chiqish orqali jinoyat ishini tugatish asoslari turli mezonlarga ko'ra alohida tasniflab chiqildi. Tahlil natijalari yuzasidan jinoyat protsessida rehabilitatsiya qilinmaydigan asoslar bo'yicha jinoyat ishini tugatish institutini takomillashtirish bo'yicha tegishli xulosalar, taklif va tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: javobgarlik, jinoyat ishini tugatish, jinoyat ishini tugatish mezonlari, rehabilitatsiya, rehabilitatsiya qilinmaydigan asoslar, javobgarlikka tortish muddati, yarashuv.

КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА ПРИ ПРЕКРАЩЕНИИ УГОЛОВНОГО ДЕЛА

Махмудов Суннат Азим угли,
преподаватель кафедры «Уголовно-процессуальное
право» Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье на этапе осуществления судебно-правовой реформы на основе норм уголовного и уголовно-процессуального законодательства было сформулировано понятие института прекращения уголовного дела, его специфика и процессуальное значение. В статье исследована область применения этого института на основе взглядов, выдвинутых учеными относительно института прекращения уголовного дела. Исходя из взглядов и выдвинутых учеными идей, понятие прекращения уголовного дела анализировалось через научные, теоретические, практические и законодательные нормы. Вместе с тем в статье анализируются роль и значение прекращения уголовного дела в уголовном процессе, его специфика, некоторые проблемы, возникающие в уголовно-процессуальном законодательстве и судебно-следственной практике. В статье дано авторское определение прекращения

уголовного дела путем сравнительного анализа мнений ученых о прекращении уголовного дела, рассмотрения на основе национального законодательства понятий, содержащихся в приведенных ими определениях. По результатам анализа были сделаны соответствующие выводы, предложения и рекомендации относительно понятия института прекращения уголовного дела в уголовном процессе, его специфики и значения в уголовном и Уголовно-процессуальном законодательстве.

Ключевые слова: ответственность, прекращение уголовного дела, реабилитация, прекращение уголовного дела по нереабилитирующим основаниям, нереабилитирующие основания, срок давности привлечения к ответственности, в связи с примирением.

THE CONSTITUTIONAL BASIS OF HUMAN RIGHTS IN THE TERMINATION OF A CRIMINAL CASE

Makhmudov Sunnat Azim ugli,

Lecturer, Department of Criminal Procedural Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. In this article, at the stage of implementation of the judicial and legal reform, on the basis of the norms of criminal and criminal procedural legislation, the concept of the institution of termination of a criminal case, its specificity, and procedural significance was formulated. The article explores the scope of this institution on the basis of the views put forward by scientists regarding the institution of termination of a criminal case. Based on the views and ideas put forward by scientists, the concept of termination of a criminal case was analyzed through scientific, theoretical, practical, and legislative norms. At the same time, the article analyzes the role and significance of the termination of a criminal case in the criminal process, its specificity, and some problems that arise in criminal procedural legislation and judicial and investigative practice. The article gives the author's definition of the termination of a criminal case through a comparative analysis of the opinions of scientists on the termination of a criminal case, consideration on the basis of our legislation of the concepts contained in the definitions given by them. Based on the results of the analysis, relevant conclusions, proposals, and recommendations were made regarding the concept of the institution of termination of a criminal case in criminal proceedings, its specificity, and its significance in criminal and criminal procedural legislation.

Keywords: responsibility, termination of a criminal case, rehabilitation, release from liability, termination of a criminal case on non-rehabilitating grounds, non-rehabilitating grounds, the statute of limitations for liability, connection with reconciliation.

Kirish

Bugungi kunda sud-huquq islohotlarini amalga oshirish jarayonida jinoyat-protsessual qonunchiligini liberallashtirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifani hayotga tatbiq etish hamda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning mutlaqo yangi ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respub-

likasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilindi. Mazkur konsepsiyada jinoyat va jinoyat-protsessidagi ayrim institutlarni takomillashtirish vazifasi belgilangan edi.

Shunga ko'ra, jinoyat-protsessida "aybli-lik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish" institutini tadqiq etish hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mazkur institutni takomillashtirishning yangicha metodologik asoslarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Material va metodlar

Jinoyat ishini tugatish masalasi qonunchilikda belgilangan bo'lsa-da, ushbu institut tushunchasi hamda amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar sababli ushbu tadqiqot ishida asosan qiyosiy-huquqiy tahlil, shuningdek, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Zamonaviy yurisprudensiya talablari asosida "Ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish" institutini takomillashtirishda bir nechta vazifalar oldimizda turibdi. Mazkur vazifalarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1) jinoyat-protsessual qonunchiligiga ilg'or xorijiy tajribani implementatsiya qilish orqali "Ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish" holatlarini qayta tahlil etish hamda mazkur holatlarni qo'llash bilan bog'liq muammolarni o'rganish;

2) zamonaviy yurisprudensiya talablari asosida "ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish" holatlarining ayrim turlarini takomillashtirish.

Jinoyat ishini tugatish asoslarini tasniflash nafaqat bir-biriga o'xshash holatlarni tartibga solishga, balki huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlariga ish bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilish uchun har bir asosning protsessual mohiyatini aniqlashga yordam berishga qaratilgan.

Jinoyat ishini tugatish asoslari Jinoyat-protsessual kodeksining 83- va 84-moddalarida belgilangan bo'lib, bunda jinoyat ishini tugatishning 16 ta asosi keltirib o'tilgan. Mazkur 16 ta asos qaysidir mezonlarga ko'ra muayyan tasniflarga bo'linadi [1, 65–66-b.].

Yuridik adabiyotlarda jinoyat ishini tugatish institutini u yoki bu mezonlarga asosan tasniflash bo'yicha turli xil qarashlar mavjud. Bu esa bugungi kunga kelib ham jinoyat-protsessual huquqi nazariyasida ushbu institutni tasniflashda yagona to'xtamga kelishga to'siq bo'lmoqda. Zamonaviy yuridik adabiyotlarda jinoyat ishini tugatish asoslari reabilitatsiya

[2, 88–90-b.] va reabilitatsiya qilinmaydigan (noreabilitatsiya) [3, 80–85] mezonlarga ko'ra tasniflashni taklif etadi.

Jinoyat ishi reabilitatsiya asoslariga ko'ra tugatilgan taqdirda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan shaxsning jinoyat sodir etishdan oldingi huquqlari, halol nomi, obro'si sud yoki ma'muriy tartibda tiklanishi uchun zarur choralar ko'riladi, jinoyat natijasida unga yetkazilgan zarar qoplab beriladi [4, 159-b.].

Shu bilan birga, shuni qayd etish joizki, jinoyat ishini reabilitatsiya asoslariga ko'ra tugatish vakolati surishtiruvchi, tergovchi, prokurordan tashqari sudda ham mavjud [5, 20–22-b.].

Jinoyat ishini reabilitatsiya asoslariga ko'ra tugatish jinoyat ishiga jalb etilgan shaxsning tergov yoki sud harakatlari natijasida uning jinoyat sodir etmaganligi va sodir etilgan jinoyatga hech qanday aloqasi yo'q ekanligini rasman tan olishni nazarda tutadi.

Bunda jinoyat ishi qaysi bosqichda (ishni sudga qadar yuritish yoki sud bosqichida) tugatilishidan qat'i nazar shaxsning barcha huquqlari (yetkazilgan mulkiy va ma'naviy ziyon bilan birga) vakolatli organlar tomonidan to'liq tiklab beriladi. Qonunchiligimiz bo'yicha reabilitatsiya etilgan shaxs yetkazilgan mulkiy zararni undirish hamda ma'naviy ziyon oqibatlari bartaraf etilishini talab qilish huquqiga ega.

Bundan tashqari, reabilitatsiya etilgan shaxsning mehnat qilish, nafaqa olish, uy-joydan foydalanish huquqlari ham tiklanishi lozim. Reabilitatsiya qilinmaydigan (noreabilitatsiya) asoslar jinoyat ishini tugatishga imkon beradigan faktlar bo'lib, ular shaxsni reabilitatsiya qilish, unga yetkazilgan zararni undirishni istisno qiladi [6, 21-b.].

Ushbu muallifning fikri bilan kelishish mumkin. Chunki jinoyat ishini reabilitatsiya qilinmaydigan (noreabilitatsiya) asoslar bo'yicha tugatishda jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan bo'ladi, biroq yuzaga kelgan obyektiv sabab-

larga ko'ra ish yuritishni boshlash va davom ettirish imkoniyati mavjud bo'lmaydi.

Shuningdek, jinoyat ishini tugatishda reabilitatsiya asoslaridan farqli ravishda reabilitatsiya qilinmaydigan asoslarda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishi natijasida shaxsga (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi) yetkazilgan zarar (moddiy, mulkiy, ma'naviy va boshqa) qoplab berilmaydi, mehnat qilish, nafaqa olish, uy-joydan foydalanish va boshqa shunga o'xshash huquqlari tiklanmaydi.

Ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish holatlari hamda ularni qo'llash tartibi xorijiy davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligida ham, milliy qonunchiligimizda ham belgilab qo'yilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasida ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish asoslari keltirilgan bo'lib, mazkur moddada 13 ta holat belgilab qo'yilgan.

Biroq Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat ishini tugatish tushunchasining mazmun-mohiyati aniq ochib berilmagan. Shunday bo'lsa ham, bir qancha olimlar ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan tushuntirishga harakat qilishgan. Xususan, O.V. Michurin va S.N. Peretokin jinoyat ishining tugatilishi tergovning yakuniy bosqichi ekanligini, unda ishning natijalari chiqarilishini, tergovchining ichki ishonchi shakllantirilishini va ishning har bir holati protsessual hujjatlarda ifodalanganini, to'plangan har bir dalil uchun bo'shliqlar va ziddiyatlar aniqlanishini qayd etishgan [7, 26-b.].

Rus olimi S.A. Filimonovning fikriga ko'ra esa, jinoiy ishlarni tugatish va reabilitatsiya qilinmagan asoslar bo'yicha jinoiy ta'qib qilish – surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning (sudyaning) jinoyat ishi yuzasidan qabul qilingan, ish bo'yicha ish yuritishni tugatish to'g'risidagi yoki shaxsning jinoyat sodir etilishiga aloqadorligi to'g'risidagi protsessual qaroridir [8, 7-b.].

Biz ham yuqoridagi mualliflarning fikriga qo'shilgan holda shuni aytishimiz mumkinki, mazkur toifadagi ishlar yuzasidan jinoyat ishi u yoki bu sabablarga ko'ra yuqoridagi moddada nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda tugatiladi.

Ayrim mualliflarning fikriga ko'ra, ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish (jinoyat ishini reabilitatsiya qilinmaydigan asoslar bilan tugatish) instituti ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega [9, 28-b.] bo'lishi bilan bir qatorda, ushbu institutni Konstitutsiya va Jinoyat-protsessual kodeksining ayrim prinsiplari va qoidalari talablariga zid ekanligini [10, 68-b.] ham qayd etishgan.

Ayrim mualliflar esa jinoyat ishini tugatishning reabilitatsiya qilinmaydigan asoslarini ham alohida turlarga bo'lishni taklif etadi [11, 64–69-b.].

R.X. Yakupov jinoyat ishini tugatishning reabilitatsiya qilmaydigan asoslarini ikki guruhga ajratishni taklif etgan:

1) jinoiy javobgarlikdan va jinoiy jazodan so'zsiz ozod qilishni nazarda tutuvchi reabilitatsiya qilmaydigan asoslar;

2) jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, uni boshqa javobgarlik choralari bilan almashtirishni nazarda tutuvchi asoslar [12, 322-b.].

Fikrimizcha, ushbu muallifning "jinoiy javobgarlikdan va jinoiy jazodan so'zsiz ozod qilishni nazarda tutuvchi reabilitatsiya qilmaydigan asoslar" bo'yicha tasnifi bilan mutlaqo kelishib bo'lmaydi. Chunki jinoyat ishini tugatish shaxsni javobgarlikdan ozod qilishni o'z ichiga olishi mumkin, biroq jazodan ozod qilishni qamrab olmaydi.

I.P. Dornostup noreabilitatsiya asoslariga amnistiya, jinoiy javobgarlikka tortish mudatining o'tganligi, ayblanuvchining vafoti, ishning voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaga yuborilishini kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi [13, 14-b.]. Biroq ushbu muallifning ham tasnifi tugal emas. Chunki jinoyat ishini reabilitatsiya qil-

maydigan asoslar bo'yicha tugatishning boshqa asoslari (turlari) ham mavjud.

Tadqiqot natijalari tahlili

Shuningdek, ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish institutining jinoyat-protsessida muhimligi bilan bir qatorda sud-tergov amaliyotida ularni qo'llash bilan bog'liq ayrim muammolar ham yo'q emas.

Quyida mazkur institut bilan bog'liq bo'lgan muammolarni tahlil etishga harakat qilamiz.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismining 1-3- va 8-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha jinoyat ish tugatiladigan bo'lsa, jabrlanuvchi yoki fuqaroviy da'vogarning mulkiy huquqlari buzilish holatlarini amaliyotda ko'rishimiz mumkin. Fikrimizni quyida asoslashga harakat qilamiz.

Misol uchun, shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa, agar ayblanuvchi yoki sudlanuvchi (ayrim holatlarda ularning yaqin qarindoshlari) ariza bilan murojaat qilmas ekan, tergov yoki sud tomonidan shaxsning ayblilik masalasi hal qilinmasdan turib jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror yoki ajrim chiqariladi.

Ushbu holatda fuqaroviy da'vogar yoki jabrlanuvchining mulkiy huquqlari buziladi. Vaholanki, jinoyat ishini tugatish qarorida jabrlanuvchi va fuqaroviy da'vogarga mulkiy huquqlari bo'yicha fuqarolik sudiga murojaat qilish huquqi tushuntirib o'tiladi.

Shaxsga nisbatan jinoyat ishi JPK 84-moddasi birinchi qismining 1-8-bandlari, beshinchi qismining 1-, 3-bandlariga muvofiq tugatilgan holda unga nisbatan fuqaroviy da'vo ko'rmay qoldiriladi va manfaatdor shaxslarga ularning fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida da'vo qo'zg'atish huquqi tushuntiriladi. Jinoyat ishi apellyatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida yuqorida ko'rsatilgan asoslarga binoan tugatilganda ham, fuqaroviy da'voga nisbatan shunday oqibatlar yuzaga keladi.

Ushbu holatda agar fuqaroviy da'vogar yoki jabrlanuvchi fuqarolik ishlari bo'yicha sudga jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplashni so'rab murojaat qiladigan bo'lsa, sud tomonidan umumiy tartibda aybsizlik prezumpsiyasiga asosan (chunki surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qarorida yoki sud ajrimida ayblilik masalasi hal qilinmagan bo'ladi) da'vo talablari qanoatlantirishdan rad etiladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi. Agar fuqaroviy da'vogar yoki jabrlanuvchi sudga umumiy tartibda da'vo kiritadigan bo'lsa, ish sudda ko'rib chiqish vaqtida (agar umumiy da'vo muddati o'tib ketgan bo'lsa) taraflarning talabiga ko'ra da'vo muddati o'tib ketgani sababli da'vo rad etiladi.

Ma'lumot uchun: da'vo muddati – shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'lgan muddatdir. Fuqarolik kodeksi 150-moddasiga asosan umumiy da'vo muddati uch yilni tashkil etadi.

Xususan, shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tganligi bois jinoyat ishi tugatiladigan bo'lsa, (Jinoyat kodeksining 64-moddasiga ko'ra javobgarlikka tortish muddati eng kamida 2 yilni tashkil etadi) katta ehtimol bilan umumiy tartibda fuqaroviy da'vogar yoki jabrlanuvchi uchun umumiy da'vo muddati o'tib ketishi mumkin. Jinoiy javobgarlikka tortish muddati – jinoyat sodir etilgan paytdan boshlab va hukmning qonuniy kuchga kirgan paytigacha qonunda o'rnatilgan muddatlarining tugashi, shundan so'ng jinoyatni sodir etgan shaxs, tegishli shartlar mavjudligida jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi lozim [14, 162-b.]. Shunga o'xshash fikrni V.D. Borisova ham ilgari surgan bo'lib, jinoiy javobgarlikka tortish muddati deganda, qonunda belgilangan muayyan muddatning o'tishi hamda shaxs sodir etgan jinoyati uchun javobgarlikka tortilmasligi tushuniladi [15, 109-b.].

Bundan tashqari, Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, ushbu modda birinchi qismining 1-, 2-, 3- va 8-bandlarida nazarda tutilgan hollarda agar ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki vafot etgan ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari talab qilsa, ishni yuritish umumiy tartibda davom ettirilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Bunday hollarda hukm qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa, ayblov hukmi jazo tayinlanmasdan chiqariladi.

Shu sababli ayblanuvchi yoki sudlanuvchining sud tomonidan aybdor deb topilishida fuqaroviy da'vogar yoki jabrlanuvchi ham mulkiy tomondan manfaatdorligini inobatga oladigan bo'lsak, tergov yoki sud tergovi amalda davom ettirilib, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining aybdorlik masalasini ko'rib chiqishda ularga ham ariza bilan murojaat qilish huquqi mavjudligining kiritilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ikkinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismining 3-bandida ayblanuvchi yoki sudlanuvchi vafot etgani sababli ayblilik masalasini hal qilmasdan jinoyat ishining tugatilishi mumkinligi ko'rsatilgan. Biroq bugungi kunda sud-tergov amaliyotida gumon qilinuvchining vafot etish holatlari ham mavjud ekanligini unutmaslik kerak.

Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksida surishtiruv, tergov yoki sud davomida gumon qilinuvchi vafot etgan taqdirda jinoyat ishini hal etish tartibi aniq belgilab qo'yilmagan.

Bugungi kunda esa gumon qilinuvchi vafot etgan hollarda vakolatli organlar tomonidan unga dastlab sirdan ayb e'lon qilinadi, keyin ushbu jinoyat ishi ayblanuvchining vafot etgani munosabati bilan ayblilik masalasi hal qilinmasdan tugatish amaliyoti qo'llanadi.

Biroq agar jinoyat ishi qo'zg'atilmagan bo'lsa, shaxs ayblanuvchi maqomida bo'lishi mumkin emas. Bu esa Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasida ko'rsatilgan normalarga zid hisoblanadi. Shunga ko'ra, ayblilik masalasini hal qilmasdan jinoyat ishini tugatish uchun vafot etganligi asos bo'lgan shaxslar

doirasini kengaytirish taklif qilinmoqda. Shu sababli gumon qilinuvchi vafot etganligi holatini ham ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish asoslari-dan biri sifatida Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasiga kiritsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, qonuniylik prinsipining amalda tatbiq etilishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay jinoyat ishini tugatish bilan bog'liq yana bir muammo Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismi 6-bandida (ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa, Jinoyat-protsessual kodeksining 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno) nazarda tutilgan holat hisoblanadi. Fikrimizni quyida asoslashga harakat qilamiz.

Sud-tergov amaliyotida Jinoyat-protsessual kodeksi 325-moddasi hamda 84-moddasini noto'g'ri talqin qilish holatlari uchramoqda. Aksariyat surishtiruv va tergov organlari tomonidan Jinoyat-protsessual kodeksining 325-moddasi talablari noto'g'ri talqin qilinishi natijasida jabrlanuvchining shikoyati yo'qligini vaj qilib ko'rsatib, asossiz ravishda Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasi ikkinchi bandi (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmasa) bilan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish (agar ish qo'zg'atilgan bo'lsa, uni tugatish) haqida qarorlar qabul qilib kelinmoqda.

Vaholanki, mazkur toifadagi ishlarni qonun talablariga ko'ra Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi oltinchi bandiga asosan ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish lozim.

Yana bir munozarali holat jabrlanuvchining shikoyatiga ko'ra jinoyat ishini qo'zg'atish bilan bog'liq.

Misol uchun, tergovchi jinoyat ishini Jinoyat-protsessual kodeksi 325-moddasi, ya'ni jabrlanuvchining shikoyatiga ko'ra jinoyat ishini qo'zg'atdi. Dastlabki tergov davomida jabrlanuvchi ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi prokurorga tergovchi yoki su-

rishtiruvchi tomonidan yuborilishidan oldin jabrlanuvchi shikoyatni qaytarib olgan taqdirda jinoyat ishini tugatishning aniq asoslari va tartibi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilab qo'yilmagan.

Hozirda amaliyotda surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan taraflardan hech qanday shikoyati yo'q ekanligi mazmunidagi tushuntirish xati olgan holda jinoyat ishini Jinoyat-protsessual kodeksi 83-moddasi ikkinchi bandi (sodir etilgan qilmishda jinoyat tarkibi bo'lmasa) asosida tugatish holatlari ko'plab uchramoqda.

Shunga ko'ra, jabrlanuvchi surishtiruv yoki dastlabki tergov davomida shikoyatini qaytarib olgan taqdirda jinoyat ishini tugatishning aniq tartibi va asosini Jinoyat-protsessual kodeksida belgilab qo'yish maqsadga muvofiq.

Mazkur holat bilan bog'liq yana bir muammo Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismi 6-bandida belgilangan norma bilan bog'liq.

Bunda ushbu bandda jinoyat ishi faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa, Jinoyat-protsessual kodeksining 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, ish tugatilishi belgilangan. Jinoyat-protsessual kodeksining 325-moddasida esa jabrlanuvchining shikoyatiga asosan qo'zg'atiladigan jinoyat ishlari berilgan. Mazkur normani tahlil etadigan bo'lsak, Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismi 6-bandiga asosan jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa, jinoyat ishi tugatilishi lozim.

Biroq mazkur bandning o'zida Jinoyat-protsessual kodeksining 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno degan norma ham belgilab qo'yilgan. Modda mazmunidan shuni tushunish mumkinki, umumiy ma'noda Jinoyat-protsessual kodeksining 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno (chunki mazkur normaning o'zida jabrlanuvchining shi-

koyatiga asosan jinoyat ishi qo'zg'atiladigan holatlar berilgan) degan norma, jinoyat ishi jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa, jinoyat ishi tugatilishi lozimligini istisno etadi. Aslida, Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismi 6-bandining bunday tahrirda bayon etilishiga asosiy sabab, Jinoyat-protsessual kodeksining 325-moddasida prokurorning jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo'zg'atish mumkin ekanligi haqidagi normaning belgilab qo'yilganligidir.

Ma'lumot uchun: Jinoyat-protsessual kodeksining 325-moddasiga asosan jabrlanuvchi nochor ahvolda va ayblanuvchiga qaram bo'lgani tufayli yoki boshqa sabablarga ko'ra o'z huquqini va qonuniy manfaatlarini o'zi himoya qila olmaydigan alohida hollarda prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo'zg'atishi shart. Shunga ko'ra, JPKning 84-moddasi birinchi qismi 6-bandiga quyidagi mazmundagi tahririy o'zgartirish kiritish lozim.

"Ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa, prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo'zg'atish hollari bundan mustasno;"

Xulosalar

Tahlil natijalari yuzasidan ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatishni takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

Birinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat ishini tugatishning ikki xil tartibi mavjud. Bular:

a) reabilitatsiya asoslariga ko'ra jinoyat ishini tugatish asoslari (Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasi);

b) ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish asoslari (Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasi).

Qonunchiligimizda reabilitatsiya asoslarining 3 ta, reabilitatsiya qilinmaydigan (no-

reabilitatsiya) asoslarning 13 ta turi belgilab qo'yilgan.

Fikrimizcha, jinoyat ishini tugatish asoslarini reabilitatsiya va noreabilitatsiya mezonlari bo'yicha tasniflash jinoyat ishini tugatishning huquqiy oqibatlariga bog'liq.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismining 1–3-, 8-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha jinoyat ishi tugatiladigan bo'lsa, jabrlanuvchi yoki fuqaroviy da'vogarning mulkiy huquqlari buzilish holatlarini hisobga olib, jabrlanuvchi yoki fuqaroviy da'vogarga ham (xuddi ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki vafot etgan ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari singari) ishni yuritishni umumiy tartibda davom ettirish bo'yicha ariza yoki iltimosnoma bilan murojaat qilish huquqini berish lozim.

Uchinchidan, ayblilik masalasini hal qilmasdan jinoyat ishini tugatish uchun vafot etganligi asos bo'ladigan holatlardagi (ayblanuvchi va sudlanuvchi) shaxslar doirasini kengaytirishni taklif etamiz.

Shu sababli gumon qilinuvchi vafot etgani holatini ham ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish asoslari-

dan biri sifatida Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismining 3-bandiga kiritish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismi 6-bandiga quyidagi mazmundagi tahririy o'zgartirish kiritish lozim.

"Ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa, prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo'zg'atish hollari bundan mustasno".

Beshinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksi 325-moddasi birinchi qismida "jabrlanuvchining voyaga yetmaganligi" holatining ham prokurorga jinoyat ishini qo'zg'atish huquqini beruvchi holat sifatida e'tirof etilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy yurisprudensiya talablari asosida ilg'or xalqaro standartlar va xorijiy amaliyotni hisobga olgan holda ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish institutini takomillashtirish fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bilan bir qatorda amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolarga yechim topishga ham xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Makhmudov S. Termination of criminal proceedings in criminal procedure. Proceedings of the Conferences, 2021, vol. 1, no. 1, pp. 65–71.
2. Lavnov M. Institut prekrashcheniya ugovnogo dela v sisteme ugovno-protsessualnogo prava i pravoprimeritelnoy praktiki [The institute of termination of a criminal case in the system of criminal procedure law and law enforcement practice]. PhD thesis. Saratov, 2015, pp. 88–90.
3. Smir A. Modernizatsiya osnovaniy prekrashcheniya ugovnogo dela i ugovnogo presledovaniya v zakonodatel'stve Rossiyskoy Federatsii i Respubliki Abkhaziya [Modernization of the grounds for the termination of a criminal case and criminal prosecution in the legislation of the Russian Federation and the Republic of Abkhazia]. PhD thesis. Volgograd, 2019, pp. 80–85.
4. Khabarova Ye.A. Prekrashcheniye ugovnykh del po nereabilitiruyushchim osnovaniyam: sistema osnovaniy i garantiy prav uchastnikov protsessa [Termination of criminal cases on non-rehabilitating grounds: a system of grounds and guarantees of the rights of participants in the process]. Abstract of PhD thesis. Yekaterinburg, 2004, pp. 20–22.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan]. Resp. ed. G.A. Abdumajidov. Tashkent, TSIL, 2009, p. 159.

6. Chasovnikova O.G. Prekrashcheniye ugovnogo presledovaniya po nereabilitiruyushchim osnovaniyam [Termination of criminal prosecution on non-rehabilitating grounds]. Abstract of PhD thesis. St. Petersburg, 2013, p. 21.

7. Michurina O.V., Peretokin S.N. Obespecheniye zakonnosti i obosnovannosti prekrashcheniya ugovnogo dela [Ensuring the legality and validity of the termination of the criminal case]. *Russian Investigator*, 2016, no. 7, p. 26.

8. Filimonov S.A. Prekrashcheniye ugovnogo dela i ugovnogo presledovaniya po nereabilitiruyushchim osnovaniyam [Termination of a criminal case and criminal prosecution on non-rehabilitating grounds]. Abstract of PhD thesis. Krasnodar, 2009, p. 28.

9. Musabekov S. Amnistiya – akt gumanizma ugovnoy politiki v Respublike Kazakhstan [Amnesty is an act of humanism of criminal policy in the Republic of Kazakhstan]. *Femida*, 2001, no. 6, p. 21.

10. Sakhaddinov S.M. Mekhanizmy raskayaniya i primireniya: dve grani instituta mediatsii [Mechanisms of repentance and reconciliation: Two faces of the institution of mediation]. *Law*, 2003, no. 4, p. 68.

11. Kalugin A.G. Klassifikatsiya osnovaniy prekrashcheniya ugovnogo dela (ugovnogo presledovaniya) [Classification of the grounds for the termination of a criminal case (criminal prosecution)]. Problems of protecting human rights in Russian legal. Proceedings of the All-Russian Scientific and Practical Conference, 2009, February 6-7. Tyumen, 2009, vol. 1, pp. 64-69.

12. Yakupov R.Kh. Ugolovnyy protsess [Criminal process]. Moscow, 1998, p. 322.

13. Dornostup P. Nereabilitiruyushchiye osnovaniya prekrashcheniya ugovnogo presledovaniya v deyatel'nosti organov predvaritelnogo rassledovaniya MVD Rossii [Non-rehabilitating grounds for the termination of criminal prosecution in the activities of the bodies of preliminary investigation of the Ministry of Internal Affairs of Russia]. Abstract of PhD thesis. St Petersburg, 2003, p. 14.

14. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [The course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. A common part. The doctrine of punishment. 2nd ed., supplemented and revised. Tashkent, Military-Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, vol. 2, p. 162.

15. Borisova V.D. Problemy srokov davnosti ugovnogo presledovaniya v usloviyakh sovremennoy pravoprimeritelnoy praktiki [Problems of statute of limitations for criminal prosecution in the conditions of modern law enforcement practice]. *Bulletin of UNN*, 2017, p. 262.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

MAXSUS SON

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.b.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Y. Mahmudov, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 30.12.2022-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 15,11 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 179.

TDYU tipografiyasida chop etildi.